

HARBIY XIZMAT AXLOQINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti magistri

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti 2-bosqich kursanti

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti 1-bosqich kursanti

Annotatsiya: Demokratik jamiyatda inson birinchi darajali masala ekanligi e'tiborga olinib, Konstitustiyada inson huquqlari, erkinliklari va burchlari masalasiga alohida ahamiyat beriladi. Konstitustiya O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'ti-qodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng ekanligiga alohida urg'u beriladi. Bu qoida «Inson huquqlari to'g'risida»gi xalqaro huquqiy hujjatlardagi g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Konstitustiyaga muvofiq respublikamiz hududida ham, uning tashqarisida ham O'zbekiston o'z fuqarolarining huquqini himoya qiladi va ularga homiylik ko'rsatadi. Har kimga so'z va e'tiqod erkinligi berilgan. Har bir inson fikr yuritish va uni ifodalash huquqiga ega. Bu faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bi-lan cheklanishi mumkin.

Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Mamlakatimizda diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan, davlat diniy tash-kilotlar faoliyatiga aralashmaydi. Davlat barcha din-lar uchun teng ravishda rivojlanish, fuqarolarga dinga e'tiqod qilish uchun imkoniyat yaratib bergen.

Kalit so'z: Vatan, burchimiz, qonun, davlat, qahramonlik, inson, huquqlar, din, tibbiy xizmat, konsitutsiya, siyosiy, iqtisodiy, respublikamiz, askarlarimiz, buyruq, axloq.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarga ega bo'lib, ular jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali ishtirok etadilar. Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli, meros huquqi Qonun bilan kafolatlanadi. Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, bilim olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, sud orqali o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilish huquqiga egadir.

Konstitustiyada fuqarolarning burchlari ham belgilab berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublika-sining har bir fuqarosi konstitustiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilar huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining 48-moddasi

fuqarolarni «Konstitustiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur» ekanligini ta'kidlaydi.

Harbiy shon-sharaf, sha'n darajasi jangchining o'ziga, jamiyatga va davlatga hamda shu bilan bir vaqtida, unga nisbatan odamlarning, jamiyatning ko'rsatgan xizmatlariga loyiq ravishdagi munosabatlarini ochib beradi. Mamlakatimizda har qanday mehnat hurmatga sazovor. Ammo shunday bir mehnat borki, u xalq tomonidan murakkabligi va ijtimoiy mas'uliyati jihatidan juda e'zozlanadi. Bu - harbiylik mehnati.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, «Harbiy xizmat kishidan boshqa soha mutaxassislariga nisbatan ko'proq mardlik, matonat va fidoyilik fazilatlarini, o'z Vatani oldidagi burchi va qasamyodiga sodiqlikni talab etadi. U, shuningdek, doimiy tayyorgarlikni, o'z jonini ham ayamasdan har daqiqada Vatan himoyasiga tayyor bo'lish hamda uni mardlarcha, mohirona himoya qilishni talab qiladi. Bizning shonli askarlarimiz mamlakatimiz xavfsizligi va xalqimizning tinch-osoyishta hayotini ta'minlamoqdalar. Shuning uchun ham Vatan himoyachisi bo'lish — katta shon-sharafdir».

Qism va bo'limalarda asosiy qoidalar va tartibni tashkil qilish Umumharbiy nizomlar bilan qat'iy belgilanadi. Qurolli Kuchlar Ichki xizmat nizomi harbiy xizmatchiga o'z davlati Konstitustiyasiga va qonunlariga katiy rioya qilish, Umumharbiy nizomlar talablarini bajarish vazifasini yuklaydi. Umumharbiy nizomlar, shuningdeq harbiy burchni bajarishda rostgo'y, intizomli, mard va jasur bo'lish, oqilona tashabbuskorlikni namoyon etish, komandir (boshliq)larga so'zsiz buysunish va ularni jangda himoya qilish, harbiy qism Jangovar Bayrog'ini avaylab-asrashni talab qiladi.

Qurolli Kuchlar Umumharbiy nizomlarida bayon etilgan ushbu va boshqa vazifalar, talablar shaxsiy tarkib faoliyatining huquqiy asosini yaratadi, harbiy xizmatchilar harakati, shuningdek, komandir qarorlarining huquqiy me'yorlarini ta'minlab be'radi.

Komandirning qarori va buyruqlarida jangchilarning kundalik amaliy faoliyatidan ko'zlangan maqsad, ularga erishish yo'llari va usullari, ichki tartib, kun tartibi, moddiy va texnik ta'minot, qo'shin xizmatini tashkil etish va o'tash tartibi, shaxsiy tarkib hayoti hamda faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar belgilanadi.

Buyruq - bu buysunuvchi uchun qonun. U so'zsiz, aniq va belgilangan muddatda bajarilishi kerak, deb ta'kidlanadi Intizom nizomida. Buyruqning bajarilmasligi, tinchlik vaqtida ham, urush vaqtida ham eng og og'ir harbiy jinoyat sifatida baholanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoev rahbar siyosiy etukligi, yuksak axloqiyligi, munosibligi, tashabbuskor, ijjodkor va yangilikka intiluvchanligi bilan ajralib turishi kerak, deb bir necha bor bejiz ta'kidlamagan. Bularning barchasi Qurolli Kuchlarimiz ofisterlariga ham bevosita taalluqlidir. Hayot, harbiy xizmat, mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatning xarakteri harbiy kadrlarimizdan g'oyaviy

toblanganlik va siyosiy etuklik, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat, yuksak kasbiy mahorat, intizomlilik va ijrochilik, jangovar texnika va qurol-aslahani mukammal bilish, murakkab sharoitlarda qism va bo'linmalarni boshqara olish, irodalilik va tashkilotchilik qobiliyati, shaxsiy tarkib bilan ishlay olish, respublika rahbariyati, Mudofaa vazirligi qo'ygan har qanday vazifani bajarishga shaylik, xalqi, Vatani va Prezidentiga, Harbiy qasamyodi, harbiy burchiga sadoqatni talab etadi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi, mehnatning bir turi bilan band bo'lgan kishilar guruhlarining kasb-hunar jihatidan ajralib chiqish va tashkil etish usullariga qarab, ularda muayyan turdag'i harakatlar va ruhiy ko'nikmalar vujudga keladi. Axloqni bir kasb-hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin: o'qituvchilik ixtisosiga qarab — pedagog axloqi; tibbiyot ixtisosiga qarab — shifokor axloqi; huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab — yurist axloqi; Qurolli Kuchlar ixtisosiga qarab — harbiy axloq va boshqalar.

Harbiy xizmatchilar axloqi — vatanparvarliq mardliq eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariiga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmasliq Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajra-lib turadi.

Harbiy xizmatchilarining axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar - dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilar axloqi murakkab tuzilishga ega bo'lib, axloqiy ong, axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlardan tashkil topgan uch qismdan ibo-rat.

Harbiy xizmatchilarining axloqiy ongi - xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo'lib, bu ularning jamiyatdagi, kundalik turmushdagi, xizmat faoliyatidagi xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va odatlarida, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik qarashlari, kechinmalari shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, ular Vatanga bo'lgan muhabbat, vatanparvarlik, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas'ullik, milliy iftixon, vijdon, or-nomus, qadr-qimmat, g'ypyp, ezgulikka intilish, g'amxo'rlik, samimiyat hissiyotlaridir.

Axloqiy amaliyot — kundalik faoliyatda aniq bir maqsaddan ko'zlangan tegishli vositalar, insoniylikka mos keluvchi ishonch, o'zaro hurmat, xushmuomalalik, samimiyat, kun tartibiga qat'iy rioya qilish, komandir va boshliqlar buyruqlarini o'z vaqtida bajarish va boshqalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy munosabatlar — harbiy jamoalar va harbiy xizmatchilar o'rtasida amal qilinadigan qonunlar, nizomlar va buyruqlarda o'z ifodasini topgan axloqiy me'yorlar bilan chegaralangan aloqalar va ta'sirlarda namoyon bo'ladi. Axloqiy munosabatlar boshliqlar va buysunuvchilar, kattalar va kichiklar, xizmat lavozimlari

va unvonlari teng bo'lgan harbiy xizmatchilar o'tasidagi o'zaro munosabatlar va muloqtlardan tashkil topadi.

Axloqiy kodekslar, qoidalar va me'yordarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, kasbiy axloqlar tizimi borligining guvohi bulamiz. Kasbiy axloqiy me'yorlar zaminida kasbning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishiga qarab, uning sharoitlari, nizom va qoidalari hamda jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti mujassamlangan.

Kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liqdir. Unda umuminsoniy axloq me'yorlari va qoidalari tayangan holda insonlarning turli ijtimoiy sohalardagi faoliyati namoyon bo'la-di. Shuning uchun ham kasbiy axloq umuminsoniy me'yorlarga qo'shimcha talablar qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida Harbiy xizmat axloqi xalqimizning o'n ming yilliklar davomida to'plagan urf-odatlari, an'analari, axloqiy me'yorlariga tayangan holda harbiy xizmatni tashkil qilish va o'tash jarayonlarida harbiy xizmatchilarning axloqiy tarbiyasi shakllanadi.

Harbiy xizmatchining Vatanga muhabbati, ma'naviy mas'uliyati, or-nomusi, g'ururi va boshqa jihatlari kasbiy faoliyatning shart-sharoitlari, tashkil qilinishi, huquqiy asoslari va yo'l-yo'rig'ini belgilab beradi hamda kundalik faoliyati jarayonida aniq va yaqqol ko'zga tashlanadi. Kasbiy axloqning ijtimoiy vazifasi - harbiy burch va majburiyatlarni bajarishning ma'naviy-axloqiy sharoitini yaratishdir.

Harbiy xizmatni tashkil qilishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalarida boshqa umuminsoniy axloqiy talablardan farqli o'laroq mutaxassis uchun maxsus aniq talablar qo'yiladi. Shu bilan birga, axloqiy me'yorlar bir tizimga keltirilib, qonun, nizom, buyruq va ko'rsatmalarda qatiy belgilab qo'yiladi.

Harbiy xizmatning vazifalari, umuminsoniy axloqiy me'yordarning talablari harbiy xizmatchilar faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, kasbiy ehtiyojlarni to'ldiradi hamda an'ana, marosim va ko'nikmalar, harbiy xizmatga bog'liq ichki va tashqi fazilatlar, kishining o'ziga xos xususiyatlarida na'moyon bo'ladi. Vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, botirlik, qat'iyatlilik, insonparvarlik harbiylarga xos xususiyatlardir. Undan tashqari, qonunlar, buyruqlar, Harbiy qasamyod va Umumharbiy ni-zomlar talablari harbiy xizmatchilar axloqiy tarbiyasi shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kundalik xizmat faoliyatini tashkil etish, xizmatni o'tash, jangovar va dala mashg'ulotlari, jangovar navbatchilik kabi harbiy xizmatga xos bo'lgan jarayonlar ham asosiy o'rinni egallaydi.

Shaxsnинг odob-axloqi, tarbiyasi va fazilatları uning axloqiy madaniyatini ko'rsatadi. Harbiy axloq harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy o'zga-rishlarda, ijtimoiy munosabatlar jarayonida, o'za-ro nizomiy munosabatlarda shakllanib boradi.

Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari o'z axloqini o'zbek xalqining ma'naviy merosi va qadriyatları, do'stlik, o'rtoqlik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, mardlik, samimiylilik, insofililik, diyonatilik, rostguylik, xalollik, or-nomus, poklik, vazminlik, ota-onai va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, iymonlilik va boshqa axloqiy fazilatları bilan boyitib borishadi.

Harbiy xizmat boshqa kasblardan o'zining vazifalaridan kelib chiqqan jihatlari bilan ajralib turadi. Ya'ni, qonun-qoidalar, qatiy xizmat tar-tibi, buyruq berish va bajarish, vatanparvar bo'lish kabi omillarga tayanadi. Harbiy xizmat, bu - Va-tan himoyachisining kasbidir. Vatanning mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi, xavfsizligi, xalqimizning tinch-osuda hayotini himoya qilishdir.

Shunday ekan, ularning sharaflı va muqaddas burchlari harbiy xizmatchilar oldiga alohida axloqiy talablar qo'yadi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik kabi Vatan himoyachisiga xos bo'lgan axloqiy me'yorlarni shakllantirishni taqozo etadi va harbiy xizmatchilarning xizmati jarayonida takomillashib boradi. Shu bilan birga, qahramonlik, mardlik, jasurlik, botirlik, o'zaro ko'makdoshlik kabi xususiyatlar ham harbiy xizmatchilarga xosdir.

Mamlakatimiz Prezidenti - Qurolli Kuchlari-miz Oliy Bosh Qo'mondoni SH.M. Mirziyoev aytganidek, biz bugun armiyamizni haqiqatan ham mutlaqo yangicha, zamonaviy negizda, avvalambor, yuksak ma'naviy asosda tashkil qilmokdamiz. Ma'na-viyat, ma'rifat, odob-axloq, tartib-intizom, va-tanparvarlik, askariy do'stbirodarlik xususidadir. Aynan ma'naviy sog'lomlik, axloqiy tozalik yangilanishga va taraqqiyotga keng yo'l ochib beradi. Bunday jamiyatda Qurolli Kuchlar xalqning jon-tani, mamlakat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligi, tinch hayoti va yaratuvchilik mehnatining kafolati, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashnint katta maktabi bo'lib qolaveradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya qator jihatlarga ega bo'lib, ko'proq shaxsning emostional-ruhiy hislatlariga aloqador sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois jangchi Vatan himoyachisi uchun zarur bo'lgan quyidagi sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi:

-jangchilarga xos hissiyot, tasavvur, xarakter jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beruvchi tarix, madaniyat, san'at, etika hamda estetika sohasidagi belgilangan bilimlarni;

-ushbu bilimlar doirasida ma'naviy-axloqiy sifatlar, ehtiyojlar, shaxsiy xulq-atvorlarni shakllantirish va takomillashtirishni.

Xalq tarixi - millat ma'naviy kuchi va axloqiy sog'lomligining yorqin manbaidir. Uni chuqur o'rganish ma'naviy me'yor hisoblanmish mardlik, intizomlilik, halollikdir. Shu bilan birga, sotqinlik qilmaslik kabi sifatlarni shakllantirishning negizidir.

Bizga mamlakatimizning muqaddas ramzlari bo'lmish Davlat gerbi, Davlat bayrog'i, Davlat madhiyasi juda qadrlidir. Ular ma'naviyatimizning muhim ramzlari hisoblanib, cheksiz hurmat va faxr-iftixon tuyg'usini tarbiyalaydi.

Bizning boyligimiz, mustaqilligimiz hamda ajoyib kelajakka ishonchimizning bosh manbai ona erimizdir. Buyuk ajdodlarimiz hoki yotgan ushbu muqaddas zaminga muhabbat ma'naviyatning bitmas-tuganmas bulog'i bo'lib xizmat qiladi. Ona erimizni qo'riqlash - muqaddas va sharaflı majburiyatdir.

Bugungi O'zbekiston jangchisi To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari buyuk ajdodlarimizning qahramonliklarini e'zozlaydi va sharaf bilan munosib davom ettiradi.

O'zbekiston jangchisining burchi — ajdodlar an'analarini e'zozlash, munosib davom ettirish va boyitish, mustaqil Vatanimiz xavfsizligi uchun shaxsan javobgarlik hissini sezish, Vatan himoyachisi degan yuksak nomni sharaf bilan oqlash, Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlar talablariga qatiy rioya qilishdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyasi mukammal askar hayotini xatarga qo'yib bo'lsa-da, safdoshidan yordamini ayamaydi, uning uchun xuddi o'z tug'ishgan aka-ukasidek qayg'uradi.

O'zbekiston jangchisi uchun milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning jangovar an'analariga sodiq bo'lismi, shu bilan birga, eng zamonaviy talablar va andozalarga mos keladigan armiyamiz jan-govar shayligini oshirishga hissa qo'shish ulkan ahamiyatga ega. Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yuksaltirish, har qanday vaziyatda ham murakkab sinovdan sharaf bilan chiqish harbiylardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuksak aql-idrok, intellektual salohiyat, alohida ruhiy-ma'naviy xususiyat va fazilatlarga ega bo'lishni, eng zamonaviy qurol-yarog'lar sir-asrorlarini puxta egallashni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, Qurolli Kuchlarimiz shaxsiy tarkibining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, mustahkam irodasi, fidoyiligi, ona yurtga mehr-muhabbati va sadoqatiga so'zsiz bog'liqidir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida jangovar tayyorgarlikni va shaylikni oshirishda hamda harbiy iitizomni mustahkamlashda axloqiy tarbiyaning alohida o'rni bor. Prezidentimiz Is'lol Karimov aytganidek, «Harbiy islohotlar har-biy xizmatchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni, professional tayyorgarligini va qayta tayyorlashni tashkil etishning butun tizimini qaytadan ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Bu - jangchilarimizda Vatanga muhabbat va sadoqatni, yuksak ma'naviy fazilatlar va mustaxham irodani tarbiyalashga, professionalizmni, a'lo jangovar tayyorgarlikni ta'minlashga qaratilishi lozim».

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi - harbiy xizmatchilar ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va singdirish, buyuk ajdodlarimizning boy madaniy-tarixiy meroslari bilan faxrlanish, an'analarga sodiqlik, milliyligimizni anglash, ular qalbida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat ruhini qaror toptirish va doimo o'z burchlarini munosib o'tash uchun tayyorlashga qaratilgan.

Harbiy axloqning quyidagi asosiy tushunchalarini ko'rsatish mumkin:

- 1.Harbiy burch;
- 2.Harbiylarning axloqiy mas'uliyati;
- 3.Harbiy qahramonlik;
- 4.Harbiy intizom;
- 5.Talabchanlik va ijrochilik;
- 6.Mardlik;
- 7.Jonkuyarlik;
- 8.Jangovar o'rtoqlik va boshqalar.

Harbiy burch - bu O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining sharaflı burchidir. Konstitustiyamizning 52-moddasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda

belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar» degan so'zlar mustahkamlangandir.

Bundan kelib chiqadiki, Vatanni, uning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini, fuqarolarning tinch-osoyishta hayoti va xavfsizligini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining konstitustiyaviy burchi va muqaddas vazifasidir. Biz Qurolli Kuchlarda xizmat qilishni sharaflı burch deb ataymiz. Chunki, ona-yurtni himoya qilish qadim-qadimdan sharaflı ish, deb hisoblab kelingan.

Bu bilan xalq va davlat tomonidan Vatan himoyasi bo'yicha fuqarolarga yuklangan va yuklanayotgan alohida mas'uliyat ta'kidlangan. Konstitustiyamizning 125-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi», deb yozib qo'yilgan. Vatan himoyachisi oldiga O'zbekiston Konstitustiyasi qo'yayotgan bu sharaflı va mas'uliyatli vazifalarni bajarish, har bir harbiy xizmatchining sharaflı burchi hisobla'nadi.

Harbiy qahramonlik - bu mardlikning yuksak ko'rinishi bo'lib, jangchining Vatan dushmanlari bilan qurolli kurashda yuksak jango var faollik va ma'naviy mas'uliyati tarzida namoyon bo'ladi.

Biz uzoq vaqt davomida Vatanimizda o'zligimizga begona bo'lib yashadik. Bugungi hurriyatimizga erishgunimizga qadar ming-minglab ziyoli, xalqni etaklovchi bobolarimiz shahid ketishdi.

Mana shu ulkan baxtimizni ko'ra olmayotgan, erkimiz, tinchligimizga rahna solmoqchi bo'layotgan manfur dushmanlar ham bu haqiqatni anglab etishgan bo'lsa ajabmas. Chunki, sarhadlarimizga qora niyat bilan qadam bosgan ekstremistik guruhlarning tuprog'imizda it o'limini topganligi hech kimga sir emas. Buni Bo'stonliq va Yangioboddagi, Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi janglar tafsilotidan ham bilsak bo'ladi. Bu janglarda yigitlarimiz qaxramonliklar ko'rsatib, dushmanni tormor qilishdi.

Mardlik - bu insonning chidamlilik, uddaburonlik, qatiyatllilik qobiliyatini xarakterlaydigan ma'naviy-jango var sifatidir.

Jango var o'rtoqlik - bu jango var jamoaning jipsligi va jango varlik qobiliyatiga ta'sir etuvchi ma'naviy-huquqiy norma hisoblanadi. Uning asosiy xarakterli jihatlari o'zaro elkadoshlik, o'qishda va xizmatda o'zaro ko'makdoshlik kabilarda namoyon bo'ladi.

Askariy o'rtoqlik o'zbekistonlik jangchilar uchun ularning xizmat va o'zaro munosabatlaridagi o'zgarmas qonun bo'lib, Qurolli Kuchlardagi eng ajoyib udumlardan biri hisoblanadi. Vatan himoyasi uchun bo'lgan barcha urush va to'qnashuvlarda ular mislsiz mardlik va jasorat, fidokorlik va matonat, askariy jipslik va jangda ko'makdoshlik namunalarini ko'rsatganlar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomida «Harbiy xizmatchi askariy birodarlikni e'zozlashga, o'z hayatini ayamasdan o'rtoqlarini xavf-xatardan qutqarishga, ularga so'z va ish bilan yordam berishga, har birining or-

nomusi va qadr-qimmatini hurmat qilishga, o'ziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan ko'pollik va tahqirlashlarga yo'l qo'ymaslikka, ularni noloyiq qilmishlardan tiyib qolishga majburdir», deb yozilgan.

Jangchilar xizmat faoliyatlarida askariy o'rtoqlikning muhimligini idrok etishlari uchun eng avvalo umumiylar tarzda bo'lsa ham, ularni askariy o'rtoqlikning tarixiy ildizlaridan voqif qilish zarur.

Vatan mustaqilligi va milliy manfaatlari uchun olib borilgan jang maydonlarida shakllangan as-kariy o'rtoqlik - asrlar qa'ridan bizgacha etib kelgan jangovar an'analardan biridir. U bizgacha xalqimiz qahramonona o'tmishining o'chmas yulduzi sifatida etib keldi.

Buyuk sarkarda Amir Temur janglarda jangchilarning do'stligi, ularning o'zaro yordam va ko'makdoshligini yuksak qadrlagan. «O'zing o'lsangda, o'rtog'ingni qutqar!» shiorini oldinga surgan. Bu shior o'sha davrda ham, keyinchalik ham Vatan himoyachilarining shiori bo'lib qoldi.

Askariy o'rtoqlik jangovar an'ana, axloqiy tamoyil hamda jangchilar hayot tarzi va xizmatining o'ziga xos hislati sifatida insoniyat tarixidagi eng dahshatli ikkinchi jahon urushida sinovdan o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangchilari askariy o'rtoqlik an'anasi mustahkamlashmoqda va asrab-avaylashmoqda. Do'stiga, safdoshlariga yordamga kelish, o'z hayotini ayamasdan ularni har qanday xavf-xatardan olib chiqish an'anasi vaqt o'tishi bilan nafaqat o'z aksini saqlamoqda, balki yangi qirralar bilan boyib bormoqda.

Taktik o'quv mashg'ulotlari va o'quv sinflarida, poligonlar va tankodromlarda, zangori osmonda — askariy o'rtoqlik yuksak jangovar mahorat, mustahkam intizom va tashkilotchilikka erishishni taqozo etayotir. Bu borada bo'linmaning hayoti va jangovar o'quvidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Har bir harbiy jamoa - qism va bo'linmadan tortib O'zbekiston Qurolli Kuchlarini butunlay ahil jangovar oila darajasida saqlash - muhim vatan-parvarlik vazifasidir.

Harbiy intizom - bu qonunlar va harbiy ni-zomlar bilan o'rnatilgan tartib va qoidalarga bar-cha harbiy xizmatchilar tomonidan qat'iy va aniq riosa qilinishidir.

Harbiy intizom zamirida davlatimiz qonunlari, Qurolli Kuchlarimiz nizomlarida mustahkamlangan xalq irodasi ifodalananadi.

Xalqimizning halol mehnati, jipsligi, uyushqoqligi va intizomi nafaqat islohotlarning belgilangan yo'nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, xalq farovonligi, uning umu-miy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish imkonini ham yaratadi.

Vatan himoyasi sharaflı va muqaddas burch. Bu so'zlar zamirida juda katta ma'no va mazmun bor. Vatan, bu — ajdodlarimiz yashagan, biz yashayotgan muqaddas zamindir. Shuning uchun, uni ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylashimiz ham qarz, ham farzdir.

Tarixdan ma'lumki, yurtimiz boshiga og'ir sinovli kunlar tushganda uning ozodligi, tinchligi va osoyishtaligini himoya qilishga qodir mard farzandlari ko'ksini

qalqon qilib yovga qarshi chiqdilar. Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan ajdodlarimizning qahramonliklari bugungi kunda barchamizni ona yurtimizni qadrlashga, tinch va osoyishta hayotimizni munosib himoya qilishga da'vat etib turibdi.

Shu o'rinda Prezidentimiz SH.M. Mirziyoevning «Milliy armiyamiz - mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir» nomli risolasidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir: «Xalqimizning eng ishonchli tayanchi va suyanchi, faxri va iftixori bo'lish milliy armiyamizni barpo etish davlatimiz va jamiyatimiz, Vatanimizning taqdiriga befarq qaramaydigan har qaysi insonning muqaddas burchiga aylanishi zarur».

Bugungi kunda ulg'ayib kelayotgan yosh avlod O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishni o'zlarining muqaddas va sharaflı burchi deb bilishlariga erishish, ularning ongiga vatan-parvarlik, o'z burchiga sodiqlik, Vatani, xalqi va Prezidentiga sadoqat kabi tuyg'ularni singdirish asosiy vazifalardandir. Armiyamiz safida xizmat qilishga har bir yosh ongli ravishda, yuksak mas'uliyatni his etgan holda kelishiga erishmog'imiz ke'n-rak.

Milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan harbiylar harbiy xizmatni shunchaki majburiyat emas, balki Vatan va xalq oldidagi, buyuk ajdodlarimiz va oila a'zolari oldidagi, muqaddas burch, deb bilishlari, bunday sharaflı va mashaqqatli vazifani bajarayotganlardan g'ururlanishlari, Vatan himoyachisi degan nomga dog' tushirmasliklari lozim.

Armiyamiz saflaridagi harbiy xizmatchilar nafaqat yuksak jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishlari, shu bilan birga yuksak aql-zakovat, mustahkam iroda va ruhiy jihatdan yaxshi tayyorgarliklari bi-lan ham ajralib turishlari kerak.

Buning uchun harbiy xizmatchilar o'zlarining ma'nnaviyati, tafakkuri va ongiga milliy istiqlol g'oyasini chuqur singdirib, har qanday ma'nnaviy qashshoqlikka yo'l qo'ymasliklari lozim.

«Vatanga xizmat - oliy sharaf» degan so'zlar har bir harbiy xizmatchining shioriga aylanishi, har bir harbiy xizmatchi mana shunga qatiy amal qilmog'i shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi-dir» deyilgan. Vatan himoyasi - muqaddas burch. Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz saflarida xalqi-mizning minglab farzandlari o'z burchlarini sha-raf bilan ado etmoqdalar.

Burch - insonga ob'ektiv, ya'ni mehnat qilish, xizmatni o'tash, ijtimoiy hayot qoidalariiga rioya qilish, davlat mulkini saqlash, atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, Konstitustiya va qonunlarga bo'ysunish, boshqa insonlarning huquqi, erkinligi, sha'ni va g'ururini hurmat qilish sin-gari jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan tushunchadir.

Harbiy burch - ofister, serjant va askarlar uchun muhim ma'nnaviy mezon bo'lib, ularning barcha xatti-harakatlari, vatanga sadoqati, o'z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari, jangovar mahoratlarini muntazam takomillashtirishlari, Umumharbiy nizomlar va Harbiy qasamyod talablarini so'zsiz bajarishlaridir.

Bularning barchasi harbiy xizmatchilarga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Bu - Vatan himoyasi, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligini, xalqning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligini ta'minlash mas'uliyatidir.

Umumharbiy nizomlar talablarini bilish va ularga qatiy rioya qilish - har bir harbiy xizmatchining burchi va majburiyatidir. Jangchining o'qishi, xizmati, madaniy-maishiy hayoti, qo'yingki, Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi hayoti va faoliyatining qaybir qirrasini olmaylik, ularning barchasi nizomlarda o'z ifodasini topgan va belgilab qo'yilgan. Aynan shuning uchun ham har bir harbiy xizmatchi Umumharbiy nizomlar talablari -ni yaxshi bilishi va ularga qatiy rioya qilishi shart.

Barcha nizomlar Konstitustiya asosida qabul qilingan bo'lib, Ichki xizmat nizomi, Intizom nizomi, Garnizon va qorovul xizmati nizomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 9 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan. Ular harbiy xizmatning barcha qirralari va huquqiy asoslarini ohib beruvchi hujjat sifatida harbiy xizmat to'g'risidagi qonunlar majmuasi hisoblanadi. Qurolli Kuchlar Saf nizomi ham harbiy xizmat qonuni hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 1996 yil 14 oktyabrdagi buyrug'iiga muvofiq amalga kiritilgan.

Nizomlar harbiy xizmatchilarning kundalik hayoti va faoliyatini, madaniy-maishiy turmushini, turli o'quv sharoitlar va jangovar vaziyatlarda xizmatni o'tash tartib-qoidalarini belgilab bergan rasmiy me'yoriy-huquqiy hujjatlardir. Ularda mam'lakatimiz rahbariyatining harbiy qurilish, Qurolli Kuchlarni isloh qilish, jangovar shaylikni oshirish masalalari va harbiy intizomni mustahkamlash yo'llari o'z ifodasini topgan.

Umumharbiy nizomlar mamlakatimiz Prezidenti - Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va qonunchilik hujjatlari kuchiga egadir. Umumharbiy nizomlar harbiy xizmatchilarga o'z majburiyatlarini aniq bajarishlarida, turli vaziyatlarda oldiga qo'yilgan jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishiga yaqindan yordam be'radi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki xizmat nizomi qo'shnlarning barcha kundalik hayoti va faoliyatini belgilaydi, harbiy xizmatchilarning majburiyatlarini aniq ifodalaydi. Oddiy askardan tortib, barcha harbiy xizmatchilar lavozim majburiyatları darajasini, harbiy xizmatchilar o'tasidagi munosabatlarni, buyruq berish va uni bajarish tartibi, harbiy axloqiy qoidalar hamda harbiy xizmatchilarning jamoat joylarida va harbiy jamoada o'zlarini qanday tutishlari lozimligini belgilab bera'di.

Harbiy xizmatchi majburiyatlarida harbiy xizmatchini o'z davlati Konstitustiyasiga va qonunlariga qat'iy rioya qilishga, harbiy nizomlarning talablarini so'zsiz bajarishga majburligi belgilab berilgan.

Ichki xizmat nizomining 14-moddasida shunday deyilgan: «Harbiy xizmatchi O'zbekiston Respublikasi himoyachisi oliy unvonini sharaf bilan oqlashga, Qurolli Kuchlarning, o'z harbiy qismining or-nomusi va jangovar shon-shuhratini va o'z harbiy unvoni obro'sini e'zozlashga majburdir».

Intizom nizomi Qurolli Kuchlarda yakkaboshchilik tamoyilini belgilaydi. Intizom nizomining 9-moddasida «Yakkaboshchilikning asosiy prinstipi komandir

(boshliq)ning buyruq berish huquqi va uning qo'l ostidagilarning so'zsiz bajarishiga asoslanadi», deb ta'kidlangan.

Qurolli Kuchlar Garnizon va qorovul xizmati nizomida harbiy xizmatchilarning garnizon va qoroqul xizmatini o'tashlarini tashkil etish masalalari bayon etilgan. Ta'kidlash joizki, qorovullik xizmatini o'tash - jangovar vazifani bajarish hisoblanishi nizomda aniq belgilab berilgan.

Qurolli Kuchlar Saf nizomi harbiy xizmatchiarning saf tortish oldidan va safdag'i majburiyatlari, saf tortish usullarini bajarish qoidalari, harbiy xizmatchilar, bo'linma va qism saf tortishi, saf ko'riklarini o'tkazish qoidalarini o'rgatadi.

Barcha harbiy xizmatchilarning qonuniylikka, huquqiy tartibga so'zsiz bo'y sunishi mamlakatimiz qonunlari, Umumharbiy nizomlarga qat'iy bo'y sunishiga bevosita bog'liq.

Umumharbiy nizomlar talablarini bilish, uning zaruratini anglab etish va qat'iy ijob etish, bu - mustahkam harbiy intizomga poydevor hisoblanmish uch muhim omillardir.

Qurolli Kuchlarning darajasi va taraqqiyoti, za'monaviy jang harakatlari xarakteriga mos bir qancha muhim shartlarning naqadar muvaffaqiyat, faoliik va davomiylik bilan hayotga tatbiq etilishiga ham bog'liqdir.

Ushbu shartlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan qattiq talabchanlik, ijrochilik va ijob ustidan nazorat harbiy xizmatning tashkiliy tuzilishini paydo qiladi.

Ikkinchidan, xizmatni aniq tashkillashtirish va qat'iy nizomiy tartib. Bular harbiy intizom mustahkamligi, barqarorligining eng muhim shartlaridir. Askarlarga nizomiy hayot va harbiy xizmat shart-sharoitlari yaratib bermasdan, undan nizom qoidalarini bajarishni talab qilib bo'lmaydi.

Uchinchidan, askarlarning xatti-harakatlariga harbiy jamoaning e'tiborli va talabchan munosabati. Qaerdaki harbiy xizmatchilar yig'ini haqiqatan ham demokratik shaklda bo'lib, unda harbiy xizmatning eng muhim, eng dolzarb masalalari muhokama etilsa, o'sha erda nizom qoidalarini buzishga intiladiganlarga, nizomga zid o'zaro munosabatlarga aslo o'r'in bo'lmaydi.

To'rtinchidan, komandirlar ishida ishontirish va majburlash usullarini mohirlik bilan uyg'unlashtirib olib borish.

Tarbiyaning asosi - ishontirish usulidir. Komandirning ochiq-oydin, samimiy so'zi, o'z qo'l ostidagilarni anglay olish mahorati, ular bilan sa'mimiy munosabat o'rnatishi - tarbiyaning asosi hisoblanadi. So'z bilan, yanada samarasi ko'proq ish bilan ishontirish mumkin. So'z va ish birligida katta qudrat mavjud. Komandirning shaxsiy namuna ko'rsatishining ham ahamiyati katta.

Bizning asosiy burchimiz - kundan-kunga o'zimizning jangovar mahoratimizni, kasbiy malakamizni oshirish, harbiy intizom, uyushqoqlik va nizomiy tartibni mustahkamlash, o'zimizning, bo'linma va qismimizning jangovar shayligini muntazam yuksaltirib borish, doimiy xushyorlikdan iborat.

Milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toblaydigan, ularga oila va mакtabda olib ulgurmagan bi-lim va tarbiyani o'rgatadigan, o'z Vatani, xalqi va Prezidentiga sadoqat, jasorat va matonat maktabi vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xarbiy xizmat axloqi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risidagi qonuni» 2001 yil
3. Komandirlar va shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha o'rinnbosarlariga metodik tavsiyalar. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tarbiyaviy ishlar boshqarmasi.
4. «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Vazirligining infarmatsion blyutenlari.
5. Vatanparvar gazetasi maqolalari.
6. O'zbekiston Respublikasining "Umumxarbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. Toshkent 2003 y
7. I.Karimov «Vatan sajdah kabi muqaddasdir». 1996 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi QK «Umumharbiy nizomlari» Toshkent 1996 yil.
9. "Axloqshunoslik" fanidan mustaqil ta'lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil, Pulatova D.A.
10. Estetika "Nafosatshunoslik" Toshkent 1995 yil, E.Umarov.